


E-ISSN 2181-1466




9 772181 146004

ISSN 2181-6875



9 772181 687004



Ismatullayeva I.I.	Hozirgi zamon tilshunosligida konseptni o'rganish metodlari, usullari va klassifikatsiyasi	135
Mehmonova Y. Ch.	Typology of collocations in combinatorial linguistics	139
Nuniyazova Sh. U., Djumabaeva J.Sh.	Comparative analysis in translation of English idioms and set expressions into Uzbek and Russian	144
Rajabov E.E.	O'zbek va ingliz tillaridagi "oila" tushunchasi konseptual maydonining lingvokognitiv tahlili	148
Ruziyeva N. X.	Zamonaviy tilshunoslikda matn va diskurs talqini	153
Xodjayeva D.I., Safarova M.H.	Ingliz tilini o'qitishda fonetik interferensiyaning o'rni	157
Samandarova G.Y.	Sodda gap ko'rinishidagi "hasharot" lug'aviy ma'no guruhlari asosida shakllangan paremalarning o'ziga xos xususiyatlari	161
Sayfullayev B.N.	Noqardosh tillarda o'zlashtirmalik (o'zbek va fransuz tillari misolida)	165
To'yboeva Sh.R.	Fransuz tilida sodda gap tarkibiy qismlarini tarjima qilishda yuzaga keladigan muammolar yechimi	170
Абдурахманова М.У.	"Кўрлик" касаллигининг ўзбек, рус, инглиз тилларидаги лингвистик-семантик тадқиқи	174
Ахмедова М.Х.	Ўқув жараёнига тааллуқли ноадабий сўзларнинг психолингвистик хусусиятлари	180
Вахидова Ф.С.	Дискурса диний туризм ва зиёрат туризми терминларининг воқеланиши	183
Avezov S.S.	A Corpus-based approach to phraseology research	189
Kobilova A.B.	Ingliz va o'zbek tibbiy perifrazarining semantik mikromaydonidagi lingvokulturologik xosliklari	194
Bobokalonov R.R., Narzulaeva D.B.	Vocabulary of the Qur'an in the object of theolinguistics	203
Nazarova G.P.	Muloqotda gender farq muammolari xususida	210
Raxmatov A.P.	Plusquamperfekt zamon shaklining grammatik ma'nolari va uning kontekstual tahlili (nemis tili misolida)	215
Sayidova G.Y.	Alisher Navoiy nazmiy asarlaridagi o'xshatishlarning leksik-grammatik tabiati	221
Rasulov Z.I., Yuldasheva F.E.	Xushmuomalalikning nutq odobida ifodalanishi	232
Бозоров З.А.	Речевая культура в качестве неотъемлемой части языковой культуры личности	240
Мавлонова М.Д.	Инглизча ахборот технологиялари терминларининг ўзбек тилига ўзлаштириш жараёнида маъно торайиши ва кенгайиши ходисалари	245
Шарипова А.А.	Луғат корпусини яратиш технологияси	251
Hayotova D.Z.	Tushuncha va so'z munosabati	255
Mamatova D.M.	Xitoy tilida ta'm bildiruvchi sifatlar tahlili	259
Сафаров Ф.С.	Маънодошлик каторидаги сўзлар орасидаги маъновий муносабат ҳақида	266
Akhmedova D.B.	Semantic comments in an explanatory dictionary and their processing as a semantic extension	272
ADABIYOTSHUNOSLIK *** LITERARY CRITICISM *** ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ		
Темирова Дж. Х.	Отражение национальной картины мира в русском и узбекском детском фольклоре	277
Насруллаев Э.Ж.	Алишер Навоий "Ҳикмат ва ибрат достони"нинг ғоявий таҳлили	284
Шарипова Л.Ф.	Шекспир ва Рауф Парфи сонетларида бадий тасвир	288

**PLUSQUAMPERFEKT ZAMON SHAKLINING GRAMMATIK MA'NOLARI VA UNING
KONTEKSTUAL TAHLILI
(nemis tili misolida)**

*Raxmatov Axmad Pirmuxammadovich,
Buxoro davlat universiteti, Buxoro, O'zbekiston
a.p.raxmatov@buxdu.uz*

Annotatsiya: Maqolada nemis tilida plusquamperfekt zamon shaklining ko'p ma'noligi tadqiq qilingan. Plusquamperfekt uzoq o'tgan zamoni ifodalash uchun qo'llanadi, shuningdek, u nisbiy qo'llanish xususiyatiga ega. Ikki va undan ortiq zamon shakllarining bir kontekstda o'zaro munosabatga kirishiga fe'l zamon shakllarining nisbiy qo'llanishi deyiladi. Bunda ikki va undan ortiq ish-harakat bajarilishidagi payt munosabatlari nutq momentiga qaratilmasdan, o'zaro munosabatga kirishadi. Plusquamperfektning ko'p ma'noligiga doir tilshunoslarning nazariy fikrlari nemis badiiy asarlaridan olingan misollar orqali asoslangan va kontekstual tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: zamon shaklining mutlaq va nisbiy qo'llanishi, deyktik markaz, kontekst, nutq momenti, ish-harakat, eksplitsit va implitsit ifodalanish.

Аннотация: В статье исследуется многозначность времени плюсквамперфект в немецком языке. Плюсквамперфект используется для выражения долгого прошедшего времени, а также имеет свойство относительного употребления. Взаимодействие двух или более времён в одном контексте называется относительным употреблением времен глаголов. В этом случае связь между двумя и более действиями не сосредоточена на моменте речи, а вступает во взаимную связь. Теории лингвистов о многозначности плюсквамперфект обоснованы и контекстуально проанализированы на примерах из немецких художественных произведений.

Ключевые слова: абсолютное и относительное употребление временной формы, дейктический центр, контекст, момент речи, действие, эксплицитное и имплицитное выражение.

Abstract: The article examines the polysemy of plusquamperfekt in German. Plusquamperfekt is used to express the long past tense, and also has the property of relative usage. The interaction of two or more tenses in the same context is called the relative tenses of verbs. In this case, the connection between two or more actions is not focused on the moment of speech, but enters into a mutual connection. Linguists' theories about polysemy plusquamperfekt are substantiated and contextually analyzed using examples from German works of art.

Key words: the absolute and relative use of tense forms, the deictic center, the context, the point of speech, action, explicit and implicit expression.

Kirish. Hozirgi nemis tili zamon kategoriyasi aniqlik maylida o'tgan zamoni ifodalashda uchta shakl qo'llanadi, bular preterit (Präterit), perfekt (Perfekt) va plusquamperfekt (Plusquamperfekt). Ushbu zamon shakllarining paradigmatic ma'nosi o'tgan zamoni ifodalashga xoslangan. Preterit sodda zamon shakli bo'lib, asosan, badiiy asar va ish-harakat, voqea-hodisani hikoya qilishda ko'proq qo'llanadi. Perfekt qo'shma zamon shakli bo'lib ham yozma, ham og'zaki nutqda faol qo'llanadigan shakllardan hisoblanadi. U haben/sein yordamchi fe'llarining prezensi va asosiy fe'lning sifatdosh II (Partizip II) shaklidan yasaladi. Plusquamperfekt haben/sein yordamchi fe'llarining preteriti va asosiy fe'lning sifatdosh II shaklidan yasaladi. Plusquamperfektning asosiy ma'nosi uzoq o'tgan zamoni (nem. Vorvergangenheit/ ing. past in the past) ifodalashdan iborat. U nutqiy vaziyatga ko'ra mutlaq va nisbiy ma'noda qo'llanadi. Tadqiqotlar ko'rsatishicha, plusquamperfektning nisbiy zamon shakli sifatida qo'llanish miqdori yuqori.

Asosiy qism. Hozirgi nemis tilida fe'l zamon shakllari qo'llanishiga ko'ra ikkiga – mutlaq va nisbiyga bo'linadi. Zamon shakllarining mutlaq qo'llanishi deganda, ularning nutq momentiga nisbatan o'tgan, hozirgi va kelasi zamon ma'nolarini ifodalashiga aytiladi. Boshqacha aytganda, bir gap (yoki kichik kontekst) doirasida bitta zamon shaklining qo'llanib, konkret ma'no bildirib kelishi mutlaq qo'llanish deyiladi. Bunda zamon shakllari bir-biriga nisbatan qo'llanmaydi:

Wir saßen in einem dieser neu eingerichteten Cafés auf Barhockern um einen zu hohen Rundtisch (G. Grass, Im Krebsgang).

Es wird ein Fest, ein riesiges, gewaltiges Fest werden (K. Brinkbäumer, Der Traum vom Leben).

Ko'rinib turibdiki, har ikkala gapda ham bittadan zamon shakli qo'llangan. Birinchi gapda preterit zamon shakli mutlaq qo'llangan bo'lib, ish-harakatning nutq momentidan oldin, ya'ni o'tgan zamonda bajarilganligini ifodalayapti. Ikkinchi gapda esa ish-harakatning nutq momentidan keyin bajarilishi futurum 1 yordamida ifodalangan.

Ikki va undan ortiq zamon shakllarining bir kontekstda o'zaro munosabatga kirishiga fe'l zamon shakllarining nisbiy qo'llanishi, deyiladi [3, 48]. Bunda ikki va undan ortiq ish-harakat bajarilishidagi payt munosabatlari nutq momentiga qaratilmasdan, o'zaro munosabatga kirishadi. Unga ko'ra ish-harakat bir vaqtda yoki ketma-ket bajarilishi mumkin. Boshqacha aytganda, bir gap (yoki kontekst) doirasida ikki va undan ortiq zamon shakllarining bir-biriga nisbatan kelishi, qo'llanishi nisbiy qo'llanishni tashkil etadi.

Um die Zeit, als David Frankfurter von Bern nach Davos unterwegs war, befand sich Wilhelm Gustloff auf Organisationsreise (G. Grass, Im Krebsgang).

Niemand wusste, woher sie gekommen waren (Deutschland erzählt)

Keltirilgan misollardan ko'rinadiki, har ikkala gapda ham ikkitadan zamon shakli ishlatilgan bo'lib (birinchi gapda preterit/preterit, ikkinchi gapda preterit/plusquamperfekt), ular biri ikkinchisiga nisbatan qo'llangan.

Shunday qilib, nemis tilida aniqlik maylining prezens, preterit va futurum 1 zamon shakllari mutlaq va perfekt, plusquamperfekt va futurum 2 zamon shakllari esa nisbiy qo'llanish xususiyatiga ega. Shuni aytish kerakki, nisbiy zamon shakllari ba'zi hollarda qulay kontekst ta'sirida mutlaq ma'noda ham qo'llanishi mumkin:

Ich habe an einem Morgen vierzehnmal sein Bett gebaut (E.M.Remarque, Im Westen nichts Neues).

Der Fremdenführer wird schon mit allen möglichen Fremden durch Wien gefahren sein (I. Bachmann, Besichtigung einer Stadt.)

Aytganimizdek, plusquamperfekt nisbiy zamon shakli bo'lib, haben yoki sein yordamchi fe'llarining preteriti va asosiy fe'lining sifatdosh 2 shaklidan yasaladi. Uning asosiy ma'nosi uzoq o'tgan zamoni (nem. Vorvergangenheit) ifodalashdan iborat. Plusquamperfekt asosan nisbiy qo'llanish xususiyatiga ega. Shuning uchun u ko'pincha kattaroq hajmdagi matnlarda qo'llanadi, alohida gap tarkibida (minimal kontekstda) kamdan kam uchraydi:

Anfang siebenundsechzig, bald nachdem ich mich in der Karlsbader Straße abgeseilt hatte, nach Kreuzberg gezogen war, darauf mein Studium schmiß und bei Springers „Morgenpost“ als Volontär einstieg, hörte der Geldsegen auf (G. Grass, Im Krebsgang).

Keiner konnte ihn gut leiden, er war schon ein paar Mal schuld daran gewesen, dass wir im Graben das Essen zu spät und kalt bekommen hatten (E.M.Remarque, Im Westen nichts Neues).

Plyuskvampekrfekt ba'zan mutlaq ma'noda ham qo'llanishi mumkin. Bu holda u preterit bilan qo'llanadi:

Jemand hatte eine alte Matratze an den Waldrand gelegt. Da lag sie waldfremd mit rotem Bezug. (E. Strittmatter, Schulzenhofer Kramkalender)

Gemütlich gingen wir auf die Knie, dann auf die Arme und so fort; inzwischen hatte er schon wütend ein anderes Kommando gegeben. (E.M.Remarque, Im Westen nichts Neues).

Plusquamperfektning semantik funksiyalarini belgilash ortiqcha qiyinchilik tug'dirmaydi: "Har qanday uzoq o'tgan zamon ma'nosini faqatgina plusquamperfektda ifodalash mumkin" - degan fikrni bildiruvchi tilshunoslar ham bor (Latzel, Hauser-Suida/Hoppe-Beugel, Gelhaus). Bizningcha, bu fikr o'zini uncha ham oqlamaydi. Nega deganda, o'tgan zamon shakllari bo'lgan preterit va perfekt qulay kontekst doirasida plusquamperfekt funksiyalarini ham bajarib kelishi mumkin:

Goethe ist 1832 gestorben.

Goethe starb 1832.

Ish-harakat va nutq momenti o'rtasidagi payt munosabati gapda har doim ham eksplitsit (masalan: ergash gap, zamon shakli, payt ravishi va b.) ifodalanmaydi. Agar u biror-bir leksik yoki grammatik vosita yordamida ifodalanmagan bo'lsa, u holda u "lisoniy yoki nolisoniy kontekstda" o'z aksini topadi [4, 67]. Germanist olim Hans Verner Eroms plusquamperfektning barcha ma'no ottenkalarini inobatga olib, unga quyidagicha ta'rif beradi: "Plusquamperfektning birlamchi o'tgan zamon shakli sifatida qarash noo'rin, chunki u doim boshqa zamon shakllari bilan qo'llanadi" [1; 345]. Yana bir germanist Diter Vunderlix uning fikrini davom ettirib, "Nemis adabiy tilida plusquamperfekt hech qachon sodda gapda kontekstdan ajralgan holda qo'llanmaydi. Faqat kontekstda uning xarakteri namoyon bo'ladi" - deydi [5; 151].

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, hozirgi nemis tilida plusquamperfekt quyidagi ma'nolarga ega:

1. Plusquamperfekt nisbiy ma'noda qo'llanilib, uzoq o'tgan zamoni, ya'ni o'tgan zamonda bo'lgan bir ish-harakatdan ham oldingi ish-harakat, voqea-hodisani (nem. Vorvergangenheit) ifodalashga xizmat qiladi. Bu uning asosiy ma'nosi hisoblanadi. Bunday paytda u bosh gap, ergash gap yoki mustaqil gap

tarkibida ham kelishi mumkin. U ko‘pincha **nachdem, als** bog‘lovchili payt ergash gapli qo‘shma gaplarda qo‘llanadi:

Nach einem halben Jahr in Neuandalusien hatte Humboldt alles untersucht, was nicht Füße und Angst genug hatte (D. Kehlmann, Die Vermessung der Welt).

Als er fünfhundert gezählt hatte, stand er auf (S. Hermlin, Die Zeit der Einsamkeit).

Plusquamperfekt aniqlovchi ergash gapda qo‘llanganda, retrospektiv ma‘noni ifodalaydi:

Er sah die Frau, die er nie gesehen hatte (L. Frank, Karl und Anna).

U to‘ldiruvchi ergash gap tarkibida qo‘llanishi mumkin:

Es war jetzt klar, dass sie sich ganz und gar verirrt hatten (B. Brecht, Dreigroschenroman).

Kropp war sogar soweit gegangen, dass er sich vorgenommen hatte, im Frieden das Postfach einzuschlagen (E.M.Remarque, Im Westen nichts Neues).

Biz yuqorida ta‘kidlaganimizdek, plusquamperfekt o‘tgan zamonda bo‘lgandan ham oldingi ish-harakat, voqea-hodisani ifodalashga xizmat qiladi. Agar o‘tgan zamonda ikki ish-harakat o‘zining tabiiy ketma-ketligida ifodalansa, u holda plusquamperfekt qo‘llanishi shart emas.

Er sah mit suchendem Ausdruck um sich, dann sank er zur Seite und wurde von Humboldt aufgefangen. Mit dem nächsten Schiff kehrte er zurück nach Spanien (D. Kehlmann, Die Vermessung der Welt).

Es war schon Mittag, als die ersten von uns aus den Baracken krochen (E.M.Remarque, Im Westen nichts Neues).

O‘tgan zamondagi ikki ish-harakat bajarilish nuqtayi nazaridan zamon intervalida bir-biridan katta farq qilsa, oldin bo‘lgan ish-harakat plusquamperfekt, undan keyingisi preterit orqali ifodalanadi:

Im Krieg hatte ich den Mann aus den Augen verloren. Aber dann sah ich ihn eines Mittags in den Wartesaal treten. (G. Weisenborn, Der Verfolger)

Vor vierzehn Tagen war es ziemlich ruhig in unserm Abschnitt, und der Furier hatte deshalb für den Tag unserer Rückkehr das normale Quantum Lebensmittel erhalten. Nun aber gab es gerade am letzten Tage bei uns überraschend viel Langrohr und dicke Barocken (E.M.Remarque, Im Westen nichts Neues).

Plusquamperfekt odatda o‘tgan zamonda tugallangan ish-harakatni ifodalaydi. Ba‘zan u o‘tgan zamonda leksik birliklar yordamida takrorlanadigan va davomiy ish-harakatni ham ifodalab kelib, preteritga xos funksiyani bajaradi:

Wir waren irgendwie immer zärtlich an sie verloren und hingegeben, und das Kleinste mündete uns einmal immer in den Weg der Unendlichkeit (E.M.Remarque, Im Westen nichts Neues).

Plusquamperfekt badiiy adabiyotda preterit kabi o‘tgan zamon hikoya ma‘nosini ifodalashi mumkin. Badiiy tasvirda asosan o‘tgan zamon shakllari bo‘lgan plusquamperfekt, preterit va perfekt qo‘llanadi, qisman tarixiy prezenga murojaat qilinadi. Muallif asardagi voqea-hodisalarni badiiy tasvirlashda ushbu zamon shakllarini turli kontekstlarda mahorat bilan qo‘llaydiki, bu voqea-hodisalar ham muallif, ham kitobxon ko‘z o‘ngida real gavdalanadi. O‘tgan zamon shakllari badiiy tasvirda har doim ham o‘tgan zamon ma‘nosiga ega bo‘lmaydi, ular odatda tasavvuriy hozirgi epik zamoni ifodalaydi. Boshqacha aytganda, badiiy asar qahramonlari yashab, harakat qiladigan zamoni ifodalash uchun xizmat qiladi. Plusquamperfektning asosiy ma‘nosi uzoq o‘tgan zamoni ifodalash bo‘lsada, uning bu ma‘nosi kontekst ta‘sirida neytrallashib, preterit bilan bir qatorda qo‘llanadi:

John wollte nicht sterben. Nicht hier. Noch nicht. Er dachte an seine Familie. Er hatte ihre Gesichter verloren, erinnerte sich an Schemen, aber die Gesichter und die Körper seiner Frau und seiner Kinder waren unscharf geworden. Er sah sich ihre Fotos an. Er spürte, wie verschwamm, was sein Leben gewesen war (K. Brinkbäumer, Der Traum vom Leben).

Badiiy matnning boshlanishi o‘quvchining diqqatini nutq momentigacha sodir bo‘lgan o‘tmish voqealariga yo‘naltiradi. Matndagi dastlabki gaplar keyingi ish-harakatning zamon xususiyatiga zamin yaratadi va zamoni belgilash nuqtasi bo‘lib xizmat qiladi:

Im September 1828 verließ der größte Mathematiker des Landes zum erstenmal seit Jahren seine Heimatstadt, um am Deutschen Naturforscherkongreß in Berlin teilzunehmen. Selbstverständlich wollte er nicht dorthin. Monatelang hatte er sich geweigert, aber Alexander von Humboldt war hartnäckig geblieben, bis er in einem schwachen Moment zugesagt hatte (D. Kehlmann, Die Vermessung der Welt).

Dieser Sommer 1918 ist der blutigste und der schwerste. Die Tage stehen wie Engel in Gold und Blau unfassbar über dem Ring der Vernichtung. Jeder hier weiß, dass wir den Krieg verlieren (E.M.Remarque, Im Westen nichts Neues).

Plusquamperfekt va preteritning farqlovchi semantik belgilari yig‘indisini qiyoslaganimizda, ularning ish-harakat boshlanganlik, tugallanganlik va nutq momentidan oldin bajarilganlik belgilariga ko‘ra o‘xshashligini ko‘ramiz. Preteritdan farqli ravishda plusquamperfektta perfektlik farqlovchi semantik

belgisi mavjud. Perfektlik farqlovchi semantik belgisi ikki subsema – ish-harakatning nutq momentidan oldin bo‘lganlik va natijaning aktualligini o‘z ichiga oladi. Plusquamperfekt ma’nolarining preteritga yaqinlashishi unda perfektlik belgisining chekinishi bilan izohlanadi:

Gauß atmete tief ein. Er war erleichtert, dass er hinaus war. Er musste schnell weg, bevor dieser Verrückte seine Zusage bereute. Der hatte also die Disquisitiones gelesen! Er hatte sich noch immer nicht ans Berühmtsein gewöhnt (D. Kehlmann, Die Vermessung der Welt).

Paradigmatik tahlilda subsemalar odatda farqlanmaydi, biroq sintagmatik tahlil uchun esa bu farqlash juda zarur. Masalan:

“Na, hoffentlich habe ich nichts vergessen,” - sagte sie und war im Begriff, die abgetragene Ledermappe, die sie an die magere Brust gepresst hatte, auf den Tisch zu legen (B.Uhse, Die Patrioten).

Yuqoridagi gapda plusquamperfektga xos natijaning aktualligi subsemasi chekinishi natijasida, plusquamperfekt preteritning funksiyasini bajarib kelyapti.

2. Plusquamperfektning ikkinchi ma’nosi yaqin o‘tgan zamoni ifodalab kelishi bo‘lib, uning bu ma’nosi futuristik plusquamperfekt (das futurische Plusquamperfekt) deb yuritiladi [2, 231]. Futuristik plusquamperfekt perfektning kelasi zamoni ifodalash (futurisches Perfekt) ma’nosidan farq qiladi. Perfekt ish-harakatning haqiqatdan ham nutq momentidan keyin amalga oshishini ifodalasa (Morgen habe ich die Treppe geputzt), plusquamperfekt ish-harakatning nutq momentidan oldin bajarilishini ifodalaydi. Aslida plusquamperfekt uchun xos bo‘lgan uzoq o‘tgan zamon (nem. Vorvergangenheit) ma’nosi kontekst ta’sirida chekinib, uning nutq momentiga nisbatan yaqin o‘tgan zamon (nem. Nachvergangenheit) ma’nosi hosil bo‘ladi:

Sie atmete tief aus und war Sekunden später eingeschlafen. (L. Frank, Mathilde)

Er rannte den ganzen Weg, bis er das Haus erreicht hatte.

Futuristik plusquamperfekt odatda payt ergash gapli qo‘shma gaplarda **solange ... bis, bis, bevor, ehe** bog‘lovchilari yordamida qo‘llanadi. Ushbu bog‘lovchilarning semantikasi bosh gapdagi har qanday takrorlanadigan yoki davomiy ish-harakat, voqea-hodisaning tugallanganligini ifodalaydi.

Er schoß so lange, bis er getroffen hatte.

Der Pfarrer predigte solange, bis die Gemeinde eingeschlafen war.

3. Plusquamperfekt nafaqat o‘tgan zamondagi ish-harakatni, balki kelasi zamoni ifodalash uchun ham qo‘llanadi. Nemis tilida plusquamperfektning bu ma’nosi aslida perfektga xos bo‘lib, u kamdan-kam hollardagina badiiy adabiyotda ko‘chirma gaplarda uchraydi. Bunda plusquamperfekt kelasi zamonda tugallangan ish-harakatni ifodalab, futurum 2 o‘rniga qo‘llanadi:

Ich würde – zum Schluss erst, wenn ich mit meinem Hut schon rundgegangen war, Kalick öffentlich ohrfeigen (Böll H. Ansichten eines Clowns. München).

Später, wenn sie alles überstanden hatte, wenn sie sicher sein konnte, dass Walter keinen inneren Vorbehalt mehr gegen ihre Ehe hegte, wollte sie ihm alles gestehen, und dies würde ein herrlicher Augenblick werden. (G. Harkentahl, Liebe ist mehr)

Ushbu gaplarda plusquamperfekt va preteritning nutq momentidan keyin joylashganligiga payt ravishlari va konditsionalis ishora qilyapti.

4. Plusquamperfektning yana bir qo‘shimcha ma’nosi uning gapda aspektual xarakterini ifodalab kelishidir. “Aspektuallik” tilning funksional-semantik kategoriyasi bo‘lib, gapda ish-harakat bajarilish xarakterini turli morfologik, sintaktik, so‘z yasovchi va leksik vositalar orqali ifodalaydi. U dunyoning ko‘pgina tillarida grammatik ifoda vositasi sifatida uchraydi, zamon shakllari bilan bir qatorda payt munosabatlarini grammatik ifodalashning qo‘shimcha turiga kiradi. Plusquamperfektning aspektual ma’nosi ish-harakat kechishi, jarayonini emas, balki tugallanganlik holatini ifodalashdan iborat:

Und wie du mich aus dem Schlamassel holtest, als ich noch ein kleiner Rekrut und zum erstenmal verwundet war? (E.M.Remarque, Im Westen nichts Neues)

Wir waren einem der Regimente mit der hohen Hausnummer zugeteilt, vorher aber zur Einkleidung in die Garnison zurückbefördert worden (E.M.Remarque, Im Westen nichts Neues).

Keltirilgan misollardan ko‘rinib turibdiki, plusquamperfekt ish-harakat bajarilishini emas, balki tugallanganlik holatini ifodalab kelyapti.

5. Plusquamperfekt o‘zining mutlaq qo‘llanishida nafaqat uzoq o‘tgan zamoni, balki har qanday o‘tgan zamondagi ish-harakat, voqea hodisani ifodalab kela oladi. Bu hol asosan og‘zaki nutq va nemis ommaviy axborot vositalarida uchraydi, o‘ziga xos stilistik uslubni tashkil etadi:

(Television ko‘rsatuvdagi so‘zlovchi fikri)

Wir waren drei Monate in Amerika gewesen.

Hatten Sie das bereits erledigt?

Plusquamperfekt mutlaq qo‘llanganda, uning bir-biri bilan bog‘liq uchta asosiy ma‘no ottenkalari namoyon bo‘ladi: a) Co‘zlovchining inkor qilish, qarshilik va norozilik munosabatini bildiradi;

Jens will die Unterlage nicht unterschreiben. Er hatte es fest zugesagt.

Sabine kommt nicht. Und ich hatte sich so gefreut!

b) Bildirilayotgan voqea-hodisaning nutq momentiga nisbatan o‘tgan uzoqlik darajasiga so‘zlovchining “shaxsiy-sub’ektiv” payt munosabatini ifodalab keladi;

(Futbolchi o‘yindan keyingi intervyuda)

Es war ein schweres Spiel gewesen.

(Oldindan joy buyurtirilgan biror-bir restoranga kirayotib)

Wir hatten einen Tisch bestellt.

v) Hurmat ma‘nosini ifodalab keladi. Bunda plusquamperfekt so‘zlovchining oldin murojaat qilgan kishiga nisbatan hurmatini ifodalaydi;

(Professor ilmiy xodimdan tadqiqotlar natijasini so‘rayotib)

Nach den Büchern hatten Sie gefragt?

Hatten Sie mir diesen Brief geschrieben?

(Xarid qilingan mahsulotni almashtirishga kelgan xaridorga sotuvchi murojaat qilib)

Hatten Sie Ihre Quittung mitgebracht?

Keltirilgan misollardagi ish-harakatning nutq momentiga nisbatan masofasini inobatga oladigan bo‘lsak, perfekt yoki preterit qo‘llanishi kerak edi. Plusquamperfektning mutlaq qo‘llanishidagi bunday hollar uning stilistik xususiyatlari bilan bevosita bog‘liqligidandir. Plusquamperfektning bunday qo‘llanishi nemislarning kundalik hayotida uchraydigan ommaviy axborot vositalarida allaqachon odatiy holga aylangan.

Bunday hollar plusquamperfektning nafaqat grammatik, balki stilistik funksiyalarni ham bajarib kelishidan dalolat beradi. Odatda, bunday gaplarda plusquamperfektning payt ma‘nosi emas, balki so‘zlovchining ish-harakat, voqea-hodisaning bajarilish paytiga sub’ektiv-stilistik munosabati oldingi planga chiqadi.

Xulosa. Yuqorida keltirilgan fikrlardan plusquamperfektning ko‘p ma‘noli zamon shakli ekanligi yaqqol seziladi. Uni hozirgi o‘zbek adabiy tilidagi o‘tgan zamon shakllari bilan qiyoslaganda, uning nisbatan o‘xshash shakllarini ko‘rishimiz mumkin. O‘zbek tilida ham fe‘l zamon shakllarining ko‘plari birdan ortiq ma‘noga ega. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida o‘tgan zamon fe‘lining asosan to‘rt shakli, - di, - gan, - (i)b affiksli va edi to‘liqsiz fe‘li yordamida hosil qilinuvchi shakllari mavjud [6,133]. Ulardan –gan va –gan+edi yordamida yasaluvchi shakllarida harakat-holatning bajarilish vaqti nutq momentidan nisbatan uzoq bo‘lib, ma‘no va funksiyalari jihatdan nemis tilidagi plusquamperfektga to‘g‘ri keladi:

Yerni yumshatib, bahorda to‘qayni buzish maqsadida qayta-qayta quyilgan suv endi yerga singmay, muzlab qolgan edi (A. Qahhor).

U hozirgina yodiga olgan qishloqi Xushro‘ybibini ham, uning kamtarin, mehnatkash marhum erini ham, kutilmagan vaqtda yo‘qlab kelgan bu arslonday qishloqi jiyanini ham unutgan, uning fikrini yolg‘iz o‘z ishlari ishg‘ol etgan edi (Oybek).

Ish-harakat bajarilish vaqtining uzoqlik darajasi har xil bo‘lishi mumkin, jumladan bundan bir necha asrlar ilgari yuz bergan hodisaga nisbatan ham –gan affiksi bilan yasalgan shaklni qo‘llash mumkin [6, 139]:

Bir zamonlar dadangiz meni ham yo‘lga solish tilagida ancha uringan. Men bo‘lsam, o‘jarlik qilib o‘z bilganimni qilganman (Sh. Rashidov).

O‘zbek tilidagi –gan va –gan+edi yordamida yasaluvchi shakllarda ham nemis tilidagi plusquamperfektga o‘xshab ish-harakatning tugallanganlik ma‘nosi mavjud.

Xulosa sifatida aytish lozimki, plusquamperfekt ko‘p ma‘noli zamon shakli bo‘lib, u nafaqat nutq momentiga nisbatan uzoq o‘tgan zamon ma‘nosini, balki yaqin o‘tgan zamon, kelasi zamon kabi ma‘nolarni ham ifodalab keladi. Bu xususiyatlari bilan plusquamperfekt kontekst ta‘sirida preterit va perfektning ham almashtirishi mumkin.

ADABIYOTLAR:

1. *Eroms H.W. Relativer und absoluter Gebrauch des Plusquamperfekts im Deutschen.* – Heidelberg: In: *Askedal et al.* 1983. – S. 345.
2. *Grewendorf G. Zur Pragmatik der deutschen Tempora. Deutsche Sprache 3: 1982.* – S. 231.
3. *Schendels E. Deutsche Grammatik.* – M.: *Vys’shaja shkola*, 1979. – S. 48.
4. *Vater H. Einführung in die Zeitlinguistik.* – Trier: *Wissenschaftlicher Verlag*, 2007. –S. 67.

5. Wunderlich D. *Tempus und Zeitreferenz im Deutschen*. – München: Hueber Verlag, 1970. – S. 151.
6. Hojiev A. Fe'l. – T.: Fan, 1973. –133-139 b.
7. Ruziev Y., Khudoev S., Rakhmatov A. *The use of the past tenses in German and English //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*. – 2021. – T. 11. – №. 6. – S. 61-66.
8. Ruziev Y. *Nemis tili zamon shakllarining publitsistik matnlarda pragmatik maqsadda qo'llanishi //sentr nauchnyx publikatsiy (buxdu. uz)*. – 2020. – T. 2. – №. 2.
9. Abdulxayrov D. *Functional-semantic features of times in german and uzbek languages //sentr nauchnyx publikatsiy (buxdu. uz)*. – 2022. – T. 19. – №. 19.
10. Khudoev S. *The Riddle Genre in World Literature and the History of Research on It //International journal of language learning and applied linguistics*. – 2023. – T. 2. – №. 1. – S. 13-15.
11. Pirmukhammadovich R. A. *Flipped Learning in The Educational Process: Essence, Advantages, Limitations //Indonesian Journal of Innovation Studies*. – 2022. – T. 18.
12. Babayev O. *The first encounter between jaloliddin rumi and shams tabrizi //sentr nauchnyx publikatsiy (buxdu. uz)*. – 2023. – T. 27. – №. 27.
13. Zoyirovna K. D. *Study of Linguoculturology in Linguistics //Miasto Przyszłości*. – 2022. – T. 30. – S. 292-294.
14. Jumayev E. *O'zbek adabiy tilida so'roq gap va o'zlashtirmalik //sentr nauchnyx publikatsiy (buxdu. uz)*. – 2023. – T. 27. – №. 27.